



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITET
REKTORINING BUYRUG‘I**

2026-yil 28-mart

69-UM

Toshkent shahri

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professor-o‘qituvchilarining
2025/2026-o‘quv yilidagi faoliyatlari natijalarini KPI mezonlari asosida
baholash to‘g‘risida**

Toshkent davlat shraqshunoslik universitetida ta’lim sifatini oshirish va professor-o‘qituvchilar faoliyatini adolatli, shaffof va obyektiv baholash tizimini joriy etish maqsadida 2024/2025-o‘quv yili uchun belgilangan KPI (Key Performance Indicators - asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari) mezonlari qaytadan ko‘rib chiqilib tahlil qilindi va 2025/2026-o‘quv yili uchun yangilangan mezonlar va unga tegishli bandlar 2026-yilning 28-fevralidagi universitet Kengashining 7-sonli yig‘ilishida tasdiqlandi. Mazkur ishlarni samarali amalga oshirish maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professor-o‘qituvchilarining faoliyat natijalarini qayd etish uchun universitetning APS (<https://aps.tsuos.uz/>) platformasi yangi mezonlar asosida qayta ishlab chiqilinsin.

2. Toshkent davlat shraqshunoslik universiteti professor-o‘qituvchilar faoliyatiga baho berish, ular faoliyati samaradorligini aniqlash bo‘yicha ishchi guruh tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Toshkent davlat shraqshunoslik universiteti professor-o‘qituvchilarining o‘quv-uslubiy, ilmiy hamda optimizatsiya, transformatsiya va xalqarolashtirish jarayonlarini izchil amalga oshirish, ta’lim sifatini yanada takomillashtirish, ijtimoiy, ma’naviy va ma’rifiy tadbirlarni tashkillashtirish borasida olib borayotgan ishlari samaradorligini aniqlash va baholash mezonlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Institutlar direktorlari N.Xodjayeva, G.Arifjonov, fakultetlar dekanlari A.Vaxidov va M.Askarov hamda oliy maktab boshliqlari va kafedra mudirlariga:

4.1. Barcha professor-o‘qituvchilar tomonidan 2025/2026-o‘quv yili yakunlari bo‘yicha amalga oshirgan faoliyat natijalari APS – Academic Profile System (<https://aps.tsuos.uz/>) platformasiga joylashtirilishi qat’iy nazoratga olinsin.

Muddat: 30.05.2026-yil

5.Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor Q.Omonov, O'quv ishlari bo'yicha prorektor Z.Alimov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor D.Sayfullayev, Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor N.Karimov, Ta'lim sifati nazorati bo'limi boshlig'i S.Maxkamovaga:

5.1.Universitet professor-o'qituvchilari tomonidan yo'nalishlar kesimida 2025/2026-o'quv yili yakunlari bo'yicha APS platformasiga yuklatilgan faoliyat natijalari jiddiy o'rganib chiqilsin va ishchi guruhga taqdim etilsin.

Muddat: 15.06.2026-yil

6. Ishchi guruhga:

6.1.Universitet professor-o'qituvchilari 2025/2026-o'quv yili yakunlari bo'yicha faoliyatlari natijalari iyun oyi Kengashi muhokamasiga tavsiya etilsin.

7. Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor Sh.Mirziyatov va Moliya-reja bo'limi boshlig'i S.Toshturdiyevga:

7.1. Ishchi guruh tavsiyasiga ko'ra yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar universitetning moddiy rag'batlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan rag'batlantirilsin.

8. Devonxona va arxiv bo'limi mudiri (Sh.Yakubjanova)ga:

8.1. Ushbu buyruqni tegishli mas'ullarga yetkazish vazifasi topshirilsin.

9. Mazkur buyruq ijrosining nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Rektor



G.Rixsiyeva

FCM2673

FCM2673

TDSHU rektorining 2026-yil “_____” _____dagi
_____son buyrug‘iga 1-ilova

**Toshkent davlat shraqshunoslik universiteti professor-o‘qituvchilar faoliyatiga baho berish,
ular faoliyati samaradorligini aniqlash bo‘yicha ishchi guruh**

t/r	F.I.Sh.	Lavozimi
1.	Rixsuyeva Gulchehra Shavkatovna	TDSHU rektori - rais
2.	Omonov Quدراتilla Sharipovich	Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor
3.	Alimov Zuhridin Isomiddinovich	O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
4.	Sayfullayev Durbek Baxtiyorovich	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor
5.	Karimov Nodir Rahmonqulovich	Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor
6.	Mirziyatov Shuxrat Mirgiyazovich	Moliya va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor
7.	Maxkamova Saida Xafizovna	Ta’lim sifati nazorati bo‘limi boshlig‘i

**Toshkent davlat shraaqshunoslik universiteti professor-o‘qituvchilarining
2025/2026 - “Ta’lim sifati” yilida o‘quv-uslubiy hamda optimizatsiya,
transformatsiya va xalqarolashtirish jarayonlarini izchil amalga oshirish, ta’lim
sifatini yanada takomillashtirish, ilmiy, ma’naviy va ma’rifiy tadbirlarni
tashkillashtirish borasida olib borayotgan ishlari samaradorligini
aniqlash va baholash mezonlari**

O‘quv-uslubiy masalalar doirasidagi ishlari: 30 ball

№	Faoliyat turi	Baholash mexanizmi	Ish hajmi	
			Minimal ball	Amalda
1	Xalqaro va milliy akkreditatsiyadan o‘tkaziladigan ta’lim dasturlari bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar	Klaster rahbari hisoboti asosida Moodle platformasi asosida	har bir mezon uchun xulosa yozish – 10 ball; o‘quv kontentlarini yaratish (har bir fan uchun) – 5 ball	
2	Fan dasturi va syllabus ishlab chiqish	Xalqaro tan olingan reytinglarda (QS, THE, ARWU) Top 300 talik ro‘yxatga kiruvchi nufuzli xorijiy OTMlar o‘quv rejalari, va dasturlarini tahlil etish va ular asosida o‘quv kontentini (fan dasturi, syllabus, ma’ruzalar matni va b.) yaratish	Yangi kiritilayotgan fan uchun - o‘zbek tilida 3 ball; chet tilida – 4 ball; o‘qitilib kelinayotgan fan uchun – o‘zbek tilida 1 ball; chet tilida – 2 ball	
3	Fanlararo tadqiqot fanlarini (Interdisciplinary research) ishlab chiqish	Professor-o‘qituvchilar tomonidan fanlararo tadqiqot fanlarini o‘quv rejaga kiritilganligi va fanlarni o‘qitilishini yo‘lga qo‘yilganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida	har bir fan uchun – o‘zbek tilida 2 ball; chet tilida – 3 ball	
4	on-line va masofaviy ta’lim kontentlarini ishlab chiqish	Online va masofaviy ta’lim uchun maxsus kontentlari (videodarslar)ning mavjudligi haqidagi Multimedia markazi xulosasi asosida	har bir tugallangan fan uchun – o‘zbek tilida 2 ball; chet tilida – 3 ball	

5	Darslarni xorijiy tilda o'tkazish (til darslari bundan mustasno)	Chet tilida o'tiladigan dars bo'yicha buyruq, chet tilida ishlab chiqilgan ishchi dastur va ma'ruza matnlari asosida	2 ball	
6	Ochiq dars / ma'ruzalar o'tkazish	Kafedra ko'chirmasi va universitet saytiga qo'yilgan materiallar asosida	1 ball	
7	O'quv adabiyotlarini ISBN raqami bilan nashr etish	Nashr rejasi, o'quv adabiyoti nusxasi	5 ball	
8	Fan doirasida xorijiy o'quv adabiyotlarini o'zbek va rus tillariga tarjima qilish	O'quv adabiyotining asl va tarjima nusxalari asosida	3 ball	
9	Xorijiy tillarni bilish milliy (C1, B2) va xalqaro tan olingan sertifikatga ega bo'lish (xorijiy til o'qituvchilaridan tashqari)	Sertifikat nusxasi asosida	2 ball	
10	Professor-o'qituvchilarning xalqaro ta'lim hamda tadqiqot platformalarida faoliyatini yo'lga qo'yish	Professor-o'qituvchilarning xalqaro ta'lim (Coursera) hamda tadqiqot (Research gate, Google Scholar, Scopus) platformalaridagi tasdiqlovchi havolalar	3 ball	
11	Dars mashg'ulotlari sifatini ekspert sifatida kuzatish	Dars sifati tahlili jadvallari asosida	har bir tahlil uchun – 2 ball	
12	Malaka oshirish, qayta tayyorlash, stajirovka o'tash	BIMMda – 144 soatlik off-line malaka oshirish uchun - 2 ball; Boshqa malaka oshirish turlari - 1 ball.	2 ball; 1 ball.	
JAMI			30 ball	

Ilmiy-tadqiqot ishlar doirasidagi ishlari: 30 ball

№	Faoliyat turi	Baholash mexanizmi	Ish hajmi	
			Minimal ball	Amalda
1.	O‘R OAK ro‘yxatidagi ilmiy jurnallarda maqola ¹	OAK ro‘yxatidagi ilmiy jurnallarda chop etilgan ilmiy maqolalar nusxasi (bir nechta muallif bo‘lgan taqdirda, teng miqdorda taqsimlangan holda)	2 ball	
2.	Xorijiy universitetlar professor o‘qituvchilari bilan hammualliflikdagi har bir maqola uchun	Chop etilgan ilmiy maqolalar nusxasi (bir nechta muallif bo‘lgan taqdirda, teng miqdorda taqsimlangan holda)	2 ball	
3.	“Scopus” va “Web of science” bazalaridagi jurnallarda maqola nashri ²	birinchi kvartilga (Q1) kirgan jurnallarda e‘lon qilingan maqola uchun har bir muallifga	5 ball	
		ikkinchi kvartilga (Q2) kirgan jurnallarda e‘lon qilingan maqola uchun har bir muallifga	3 ball	
		uchinchi kvartilga (Q3) kirgan jurnallarda e‘lon qilingan maqola uchun har bir muallifga	3 ball	
		to‘rtinchi kvartilga (Q4) kirgan jurnallar va Scopus, Web of Science indeksatsiyalangan ma‘lumotlar bazalarda konferensiya materiallarida e‘lon qilingan har bir maqola uchun har bir muallifga	2 ball	
4.	Monografiya nashr etish ³	Chop etilgan nusxasi taqdim etiladi	2ball	
5.	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid dasturlar va elektron bazalari uchun guvohnomalar, mualliflik huquqi bilan	Olingan himoya hujjatlari (guvohnomalar, sertifikatlar) taqdim etiladi	3 ball	

¹ VMning 1030-son qarori Nizomi doirasida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyatida erishgan natijalari bo‘yicha qo‘shimcha haq to‘lashga topshirilmagan ishlar uchun

² VMning 1030-son qarori Nizomi doirasida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyatida erishgan natijalari bo‘yicha qo‘shimcha haq to‘lashga topshirilmagan ishlar uchun

³ VMning 1030-son qarori Nizomi doirasida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyatida erishgan natijalari bo‘yicha qo‘shimcha haq to‘lashga topshirilmagan ishlar uchun

	himoya qilinadigan sertifikatlar olish			
6.	Xalqaro ko'rsatkichlarga ko'ra professor-o'qituvchilarning ilmiy maqolalariga iqtiboslar soni	"Web of Science", "Scopus" yil davomida kelib tushgan har bir iqtibosga (10 tagacha)	1 ball (10 ballgacha)	
7.	O'quv yilida dissertatsiya himoya qilish	Ilmiy daraja diplomi nusxasi, avtoreferat taqdim etiladi	3 ball	
8.	O'quv yilida ilmiy unvon olish	Ilmiy unvon diplomi nusxasi	1ball	
9.	O'quv yilida shogirdining himoyasiga erishishi	Ilmiy daraja diplomi nusxasi, avtoreferat taqdim etiladi	3 ball	
10.	Tarjima ishlarini bajarganlik	Chop qilingan ishlar taqdim qilinadi	3 ball	
11.	Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash va Ilmiy seminarlarga ishtirok	Raislik uchun – 3 ball; A'zolik uchun – 1 ball. Tasdiqlangan hujjat nusxasi asosida	3 ball; 1 ball.	
12.	DSc, PhD va magistrlik dissertatsiyalariga, avtoreferat, darslik, o'quv qo'llanma, monografiya, ilmiy maqolaga rasmiy taqriz yozish (har bir rasmiy taqriz uchun)	DSc, PhD dissertatsiyalariga, avtoreferat, darslik, o'quv qo'llanma, monografiya uchun – 2 ball; Magistrlik dissertatsiyasi va ilmiy maqolaga yozilgan taqriz nusxasi – 1 ball	2 ball; 1 ball.	
13.	Nomdor va rektor stipendiyalariga nomzod talabalarga (shuningdek, iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot ishlari) rahbarlik qilish	Buyruq ilova qilinadi	3 ball	
14.	Ilmiy konferensiyalar va turkum ilmiy-nazariy seminarlar tashkil qilish (xalqaro, respublika, OTM)	Ilmiy konferensiyalar, turkum ilmiy-nazariy seminarlar o'tkazish bo'yicha rektor buyrug'i, Ilmiy boshqarma tasdiqnomasi Xalqaro hamkorlar (yuqori 1000 talikka kiruvchi, boshqa) – 3 ball; Respublika, OTM – 2 ball;	3 ball; 2 ball.	
15.	Ilmiy loyiha	Ilmiy loyihalar yutish (Innovatsion rivojlanish vazirligidan berilgan ilmiy loyiha sertifikati) – 2 ball;		

	Ilmiy loyihalar yaratish (TDSHudan agentlikka yo'llangan xat) – 2 ball; Ilmiy loyihalarda ishtirok etish (Loyihada ishtiroki to'g'risida tasdiqlovchi hujjat – buyruq, ma'lumotnoma, rasmiy saytdagi ma'lumot) – 1 ball.	3 ball; 1 ball.	
JAMI		30 ball	

Xalqaro hamkorlik doirasidagi ishlari: 20-ball

№	Faoliyat turi	Baholash mexanizmi	Ish hajmi	
			Minimal ball	Amalda
1	Professional rivojlanish va mobilitet	Xorijda malaka oshirish / stajirovka (umumiy davomiyligi 3-7 kun – 5 ball; 4 hafta yoki 144 soatdan kam bo'lmagan hajmda) – 10 ball	2 ball	
		Xorijda xalqaro konferensiya yoki forumda offlayn ma'ruza (har biri uchun) – 5 ball		
		Xorijiy OTMdagi ma'ruza o'qish (har biri uchun) – 2 ball ⁴		
2	Xalqaro hamkorlik va akademik aloqalar	Xorijiy OTM/tashkilot bilan amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yish (faoliyat bilan tasdiqlangan) – 5 ball	2 ball	
		Xorij OTMlari bilan amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlar Yo'l xaritasidagi bandning bajarilishi (kamida 1 natijali faoliyat) – 5 ball		
		Xorijlik professor bilan binar/webinar dars (kamida 2 soat) – 2 ball		
		Guest lecture / visiting professor jalb qilish – 5 ball		
3	Xalqaro loyihalar va moliyaviy natija	Xalqaro grant loyihasini topshirish – 3 ball	3 ball	
		Shortlistga kirish (Final bosqichga o'tgan) – 5 ball		
		Xalqaro grant yutish (ijrochi sifatida) – 10 ball		
		Xalqaro grant yutish (rahbar sifatida) – 15 ball		
		Xorijiy investitsiya jalb qilish (har 1 000 AQSH dollari uchun) – 5 ball		
			5 ball	

⁴ VMning 1030-son qarori Nizomi doirasida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyatida erishgan natijalari bo'yicha qo'shimcha haq to'lashga topshirilmagan ishlar uchun

4	Talabalar xalqarolashuvi	Xorijiy talabani grant/almashinuv dasturiga jalb qilish (har bir talaba uchun) – 5 ball		
		Xorijiy talabani to‘lov-kontrakt asosidagi jalb qilish (har bir talaba uchun)– 10 ball		
		Talabalar uchun xalqaro loyiha tashkil etish (har bir loyiha uchun)– 5 ball		
5	Reyting va reputatsiya	QS Academic respondent sifatida qatnashish – 5 ball	3 ball	
		Xorijiy akademikni respondent sifatida jalb qilish– 5 ball		
		Xalqaro media/ilmiy platformada chiqish (har bir chiqish uchun) – 3 ball		
6	BRM doirasida xalqaro ochiq dars/tadbir	Onlayn ishtirok bilan – 1 ball	1 ball	
		Oflayn xorijiy spiker bilan – 3 ball		
		Qo‘shma tashkillashtirilgan tadbir – 5 ball		
7	Xorijiy hamkor bilan qo‘shma ilmiy tashabbus	Qo‘shma grant topshirish – 5 ball	3 ball	
		Qo‘shma tadqiqot protokoli – 3 ball		
8	Universitetga tashrif buyurgan xorijiy delegatsiyaga hamrohlik qilish	Oddiy tarjimon/hamrohlik – 1 ball	1 ball	
		Muzokara olib borgan – 2 ball		
		Natijali kelishuvga olib kelgan – 5 ball		
JAMI:			20 ball	

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat doirasidagi ishlari: 20 ball

№	Faoliyat turi	Baholash mexanizmi	Ish hajmi	
			Minimal ball	Amalda
1	Ijtimoiy, ma'naviy va ma'rifiy tadbirlarni tashkil etganligi	Professor-o'qituvchilarning universitetda va hamkor tashkilotlarda rejadani tashqari ijtimoiy, ma'naviy, ma'rifiy, profilaktik tadbirlarni tashkil etishi yoki ma'ruzalar bilan ishtirok etishlari asosida	3 ballgacha	
2	Ma'rifiy va ijodiy to'garaklar tashkil etganligi	Ma'rifiy va ijodiy (kitobxonlik, nutq yoki muomala odobi singari) to'garaklar tashkil etganligi to'g'risidagi me'yoriy hujjatlar, ishtirokchilar kontingenti hamda domiy mashg'ulotlarni olib borayotganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida	3 ballgacha	
3	Rahbarligida talabani xalqaro va respublika		5 ballgacha	

	nufuzli tanlovlari yoki sport musobaqalarida sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritgani hamda mukofot (diplom)larga sazovor bo‘lgani	Xalqaro va Respublika nufuzli tanlovlari va sport musobaqalarida sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritgan talabaga professor-o‘qituvchining bevosita rahbarlik qilganligini tasdiqlovchi hujjatlar mavjudligi asosida		
4	Davlat TV va OAVlarda universitet va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar yuzasidan chiqishlar qilganligi	Professor-o‘qituvchining davlat TV va OAV (markaziy nashrlar)da universitet hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar yuzasidan keng ko‘lamli chiqishlar	3 ballgacha	
5	Davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga qaratilgan tadbirlar	Universitetga biriktirilgan maktab, mahalla, mehribonlik uylari bilan hamkorlik yo‘nalishida amalga oshirgan ishlari asosida	3 ballgacha	
6	Talabalarining ijarada yashash holati hamda ularning ijtimoiy himoyasiga qaratilgan ishlari	Professor - o‘qituvchining o‘z guruhidagi talabalarini yashayotgan ijara xonadonlari bo‘yicha yashash holatini o‘rganganligi hamda ularning ijtimoiy himoyasiga qaratilgan faoliyati asosida	3 ballgacha	
JAMI:			20 ball	

Funksional vazifalarni bajarmaganligi uchun jarima ballar:

№	Faoliyat turi	Baholash mexanizmi	Ish hajmi	
			Jarima ballari	Amalda
1.	O‘quv yuklamani bajarmaganligi	Hemis tizimi orqali aniqlanadi	5 ballgacha	
2.	Talabalar davomati va o‘zlashtirishini yuritmaganlik	Hemis tizimi orqali aniqlanadi	5 ballgacha	
3.	O‘quv darslarini vaqtida rasmiylashtirmaslik	Hemis tizimi orqali aniqlanadi	5 ballgacha	
4.	Fan bo‘yicha o‘quv-uslubiy resurslarni ishlab chiqish	Moodle elektron tizimi orqali aniqlanadi	5 ballgacha	
5.	Nashr rejasini bajarmaganlik yoki nashr ruxsatnomasi berilgan oquv adabiyotining ARM fondida topshirilmaganligi	ARM dalolatnomasi asosida aniqlanadi	5 ballgacha	

6.	Talabalar o'rtasida otkazilgan so'rovnomalarda 60dan kam ball olgan bo'lsa	Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi dalolatnomasi asosida	5 ballgacha	
7.	Shaxsiy ish rejasida kelishilgan ilmiy-tadqiqot ishlari bandlarining bajarilmaganlik holati (har bir band bo'yicha)	Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar boshqarmasi dalolatnomasi asosida	5 ballgacha	